

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



“TADQIQOT USULLARI VA KO'NIKMALARI”
FANINING O'QUV DASTURI (SILLABUS)

Bilim sohasi:	400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410800 – Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Toshkent - 2024

Mazkur o'quv dasturi (sillabus) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashning 2024 yil "27" 06 dagi 11- bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024 yil "20" 08 dagi 269 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Ushbu o'quv dasturi (sillabus) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasining 2024-yil "21" 08 dagi 21 -sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan ma'qullangan.

"Iqtisodiy statistika" kafedrası mudiri



i.f.f.d. prof. B. Utanov

Tuzuvchi: A. Ro'ziyev -

i.f.f.d., TDIU "Iqtisodiy statistika" kafedrası dotsenti

Taqrizchilar: B.K.G'oyibnazarov -

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Kadrlarni malakasini oshirish va statistik tadqiqotlari Instituti direktori, iqtisod fanlari doktori, professor

B. Mamatqulov -

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Iqtisodiy statistika" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori (DSc).

Kelishildi:

S.U.Mexmonov


imzo

TDIU, O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor i.f.d., professor



imzo

"TIQXMMI" MTU "Axborot texnologiyalari" kafedra mudiri t.f.n., dotsent. (turdosh OTM)

imzo

Toshkent Shahar statistika boshqarmasi boshlig'i (kadrlar buyurtmachisi)

FAN TO'G'RIDA MA'LUMOT

Fan kodi: **TM 1204**

Fan nomi: **TADQIQOT USULLARI VA KO'NIKMALARI**

Semestr/Yil: **7-semestr/ 2024-2025-o'quv yili**

Kafedra: **"Iqtisodiy statistika"**

Soatlar/kreditlar miqdori: 5 ECTS

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta'lim	Jami
30	30	0	90	150

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Mashg'ulot joyi va vaqti: Dars jadvaliga asosan

Prerekvizitlar: Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar "Iqtisodiyot nazariyasi", "Statistika" va "Ekonometrika" fanlari bo'yicha olingan bilimlari yetarli bo'lishi kerak.

Fan uchun mas'ul kafedra: "Iqtisodiy statistika" kafedrası

O'QITUVCHI TO'G'RIDA MA'LUMOT

O'qituvchilar: ma'ruza mashg'ulotlari – PhD., dotsent. Ro'ziyev Alisher Ibroimovich, amaliy mashg'ulotlar – PhD., dotsent. Ro'ziyev Alisher Ibroimovich

Kafedra joylashgan joyi: TDIU, 3-o'quv binosi, 403-xona

Telefon: 71-239-28-06 ish telefoni

E-mail: alisherruziev1986@mai.ru

Talablarni qabul qilish vaqti: Talabalar darsdan tashqari vaqtda o'qituvchi bilan uchrashish uchun o'qituvchi elektron pochta-siga xat bilan murojaat qilib, uchrashuv vaqtini belgilab olishlari mumkin.

I. Fan tavsifi

Talabalar ushbu fani bilishning falsafiy jixatlarini, metodologik asoslarini, tadqiqot ishlarining tuzilmasini va asosiy bosqichlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Mazkur o'quv kursi tadqiqot metodlarini, tadqiqotlardagi modellash-tirish masalalarini o'rganadi hamda tadqiqotning yo'nalishini to'g'ri tanlashga yordam beradi. Kursni o'rgangach, talabalar ilmiy axborotni izlash, to'plash va qayta ishlashni, shuningdek, eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish, qayta ishlash va natijalarini rasmiylashtirishni uddalashlari lozim.

Kasbiy kompetentlik – tadqiqot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlar shakllantirish, tadqiqotlarni amalga oshirish tamoyillari va ular ustida ishlashning asosiy bosqichlari to'g'risida bilimlarni tizimlashtirish, ilmiy referatlash

va iqtibos keltirishning asosiy tamoyillari haqida bilimlar berish, tadqiqot ishini aprobatsiya(sinov)dan o'tkazish va uning natijalarini e'lon qilish haqida tasavvurlarni shakllantirish, bitiruv malakaviy ishini himoyaga tayyorlash, himoya qilish va tugallangan tadqiqot natijalari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish haqida bilimlar berish.

II. Fanning maqsadi

- Tadqiqot tushunchasi va uning mohiyatini tushuntirish;
- Tadqiqot metodologiyasi va metodikasi bo'yicha tushunchalar berish;
- Tadqiqot vositalari va metodlarini yoritib berish;
- Tadqiqot jarayoni bosqichlarini yoritib berish;
- Adabiyotlar va hujjatlarni o'rganish hissini uyg'otish;
- Tadqiqot muammosini aniqlashni o'ziga xos jihatlarini yoritib berish;
- Tadqiqot loyihasini asoslarini tushuntirish;
- Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha tushunchalar berish;
- Gipoteza va ularni tekshirish uchun javobgarlik hissini uyg'otish;
- Tadqiqotning texnik bayonini rivojlantirishga ko'maklashish;
- Tadqiqot etikasi bo'yicha tushunchalar berish;
- Tadqiqotda axborot texnologiyalarining rolini yoritib berish;

III. Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Tadqiqot metodologiyasi fanda muammoli vaziyatning paydo bo'lishi, ilmiy bilimlarning metodologik asoslarini iqtisodiy statistik jihatdan tahlil qilish va izohlashni bilib oladi.

2. Tadqiqot metodologiyasi va metodikasi vositalari va metodlari, ilmiy izlanishlarning fazalari va bosqichlarini tashkil etish jarayonini anglaydi.

3. Tadqiqot uchun zarur bo'ladigan axborotning hujjatli manbalari va natijalarini e'lon qilish tartibini bilib oladi.

4. Bitiruv malakaviy ishi va uning belgilari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi, yangi ilmiy muammolarni to'g'ri qo'yish va aniq shakllantirishni o'ziga xos jihatlarini tavsiflaydi.

5. Tadqiqot gipotezasi va konsepsiyalarini ishlab chiqish, adabiyotlarni rasmiylashtirish uchun javobgarlik hissi shakllanadi.

6. Tadqiqot vositalarini to'g'ri tanlash, tarkiblashtirish va axborotning hujjatli manbalarini qidirish vositalaridan foydalanishni biladi.

7. Tadqiqot jarayonida ma'ruza tezisi va ilmiy maqola tayyorlash, muammoni kompleks hal qilish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'ladi.

8. Tadqiqot jarayonida bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish, dastlabki va rasmiy himoyani o'tkazish malakasiga ega bo'ladi.

IV. Ta'lim berish usullari

- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlar bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so'rov o'tkazish;
- muammoni hal qilish.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

T/r	Mavzular	Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar rejasi	Soatlar		
			Ma'ruza mashg'ulotlari	Amaliy va seminar mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim
1.	Tadqiqot asoslari	1. Tadqiqot tushunchasi va uning mohiyati. 2. Tadqiqotda motivatsiya va uning ahamiyati. 3. Tadqiqot turlari.. 4. Tadqiqot yondashuvlari.	2	2	6
2.	Tadqiqot metodologiyasi va metodikasi	1. Tadqiqot metodologiyasining mohiyati. 2. Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash. 3. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlash. 4. Tadqiqot yondashuvlari.	2	2	6
3.	Tadqiqot metodologiyasi va metodikasi	1. Tadqiqot vositalari va usullari 2. Tadqiqot tamoyillari va muammolari. 3. Tadqiqot gipotezasi va konsepsiyalarini ishlab chiqish. 4. Gipotezalarni shakllantirishning asosiy bosqichlari..	2	2	6
4.	Tadqiqot vositalari va metodlari	1. Vositalar va usullar metodologiyaning yirik bo'limi sifatida. 2. Tadqiqot vositalari (anglash vositalari). 3. Anglashning moddiy vositalari. 4. Anglashning axborot vositalari.	2	2	6

5.	Tadqiqot jarayoni bosqichlari	1. Tadqiqot fazalari va bosqichlari. 2. Tadqiqotni loyihalash fazasi. 3. Tadqiqotni loyihalash fazasining konseptual bosqichi. 4. Qarama-qarshiliklarni aniqlash bosqichi.	2	2	6
6.	Adabiyotlar va hujjatlarni o'rganish	1. Adabiyotlar topish metodlari. 2. Normativ huquqiy hujjatlar bazalari va ulardan foydalanish.. 3. Hujjatlashtirish texnikalari. 4. Adabiyotlar topishda va hujjatlashtirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish.	2	2	6
7.	Tadqiqot muammosini aniqlash	1. Tadqiqot muammolarini tanlash va shakllantirish. 2. Fanda muammoli vaziyatning paydo bo'lishi. 3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish. 4 Yangi muammolarni to'g'ri qo'yish va aniq shakllantirish.	2	2	6
8.	Tadqiqot loyihasi	1. Tadqiqot loyihasining mazmuni va ahamiyati. 2. Yaxshi loyihaning xususiyatlari. 3. Tadqiqot loyihasiga oid muhim tushunchalar. 4. Turli tadqiqot loyihalari.	2	2	6
9.	Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish	1. Ma'lumotlarning tasnifi. 2. Ma'lumotlarni to'plash usullari. 3. Tanlash tartibi va usullari. 4. Ma'lumotlarni qayta ishlash va ma'lumotlarni grafik tasvirlash.	2	2	6
10.	Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish	1. Qayta ishlash jarayonlari. 2. Qayta ishlash jarayonidagi ba'zi muammolar. 3. Tahlil turlari va elementlari. 4. Tadqiqot statistikasi. Dispersiya o'lchovlari.	2	2	6
11.	Gipoteza va ularni tekshirish	1. Gipoteza turlari. 2. Eksperimental va eksperimental bo'lmagan gipoteza. 3. Gipotezani tekshirish (parametrik va parametrik bo'lmagan testlar). 4. Xatolar turlari va ularning nazorati	2	2	6
12.	Gipoteza va ularni tekshirish	1. Gipotezalarni tekshirishga oid asosiy tushunchalar. 2. Gipotezani tekshirish tartibi. 3. Gipotezani tekshirish bloksxemasi. 4. Gipoteza testlarining kamchiliklari.	2	2	6
13.	Tadqiqotning texnik bayoni	1. Tadqiqot hisoboti turlari. 2. Tadqiqot qoralamasi.	2	2	6

		3. Anjuman taqdimoti, ma'ruzasi va boshqalar. 4. Tadqiqot hisobotlarining tuzilishi.			
14.	Tadqiqot etikasi	1. Tadqiqot etikasi. 2. Tadqiqotchilarning mas'uliyati va javobgarligi. 3. Plagiat va plagiatni aniqlash dasturlaridan foydalanish.	2	2	6
15.	Tadqiqotda axborot texnologiyalarining roli	1. Axborot texnologiyalari. 2. Tadqiqotda axborot texnologiyalarining ahamiyati 3. Kompyuter va kompyuter texnologiyalari. 4. Kompyuter tizimi. 5. Kompyuter muharrirlari (Word, Excel, PowerPoint va b.)dan tadqiqotda unumli foydalanish. 6. Kompyuter ilovalari. 7. Kompyuterlar va tadqiqotchi.	2	2	6
Jami soat			30	30	90

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Ilm-fanning zamonaviy ta'rifi: gnoseologik, ijtimoiy, madaniy jihatlari
2. Ilm ijtimoiy institut sifatida
3. Zamonaviy dunyoda fanning o'rni va roli
4. "Klassik ilm" tushunchasi va uning ideallari
5. "Postklassik fan" tushunchasi va XX asrning ikkinchi yarmida fanning xususiyatlari
6. Ilmiy bilimlarning asosiy belgilari
7. Ilmiy bilimda haqiqat: asosiy yondashuvlar
8. Ilmiy uslub, uning tuzilishi, tipologiyasi
9. Tadqiqotning empirik darajasini bilish usullari va shakllari
10. Tadqiqotning nazariy darajasini bilish usullari va shakllari
11. Muammo tadqiqotning boshlanishi va bilim shakli sifatida
12. "Ilmiy haqiqat" tushunchasi, uning tadqiqot tarkibidagi o'rni
13. Ilmiy nazariya ilmiy bilim shakli sifatida
14. Gipoteza va uning ilmiy anglashdagi o'rni
15. Kuzatuv va eksperiment tadqiqot usullari sifatida
16. Iqtisodiy fanlarda tushunish va tushuntirish
17. Iqtisodiyot fanlarining o'ziga xos usullari
18. Ilm - anglash turi
19. Ilm-fanning tarkibiy elementlari
20. Tadqiqotning nazariy modeli
21. Fanning tasniflanishi
22. Tadqiqot darajalari
23. Fanning funksiyalari
24. Fanning nazariy va empirik darajalari

25. Tadqiqotning empirik darajasi mohiyati
26. Axborot manbalarining tavsifi
27. Nazariya tushunchalar tizimi sifatida
28. Metodologiya - anglash metodi haqidagi bilim
29. Fanda empirik va nazariy tadqiqotlarning usul va uslublari
30. Gipoteza tadqiqotning asosiy metodologik vositasi sifatida
31. Tadqiqotdagi prinsiplar va yondashuvlar
32. Tadqiqotda tizimli yondashuv
33. Tadqiqot tamoyillari
34. Tadqiqotning metodologik vositalari
35. Tadqiqot usullari
36. Tadqiqotning umumilmiy usullari
37. Tadqiqotning maxsus usullari
38. Tadqiqotning xususiy usullari
39. Ekspertiza va xizmatlar sifati usullari
40. Sotsiologik tadqiqot usullari
41. Tadqiqotda tarkibiy-funksional usul
42. Tadqiqotning tayyorgarlik bosqichi
43. Tadqiqotda ma'lumotlar bazasini shakllantirish
44. Muammoning bibliografiyasini tuzish
45. Tadqiqot muammosini shakllantirish
46. Tadqiqot bosqichining xususiyatlari
47. Tadqiqotda jarayonlar tahlili
48. Tadqiqotning empirik darajasi
49. Tadqiqotning nazariy darajasi
50. Tadqiqotning uslubiy vositalari
51. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish
52. Tadqiqotning tematik tarkibi
53. Tadqiqot xulosalarini umumlashtirish va ifodalash
54. Ilmiy ishni rasmiylashtirish tartiblari
55. Tadqiqotning maqsadlari. Ilmiy bilim tushunchasi
56. Aksioma, gipoteza, nazariya fan metodologiyasining asosiy tushunchalari sifatida
57. Tadqiqotlar tasnifi
58. Tadqiqot ishi bosqichlari
59. Ilmiy metod tushunchasi
60. Falsafiy usullar: dialektik va metafizik
61. Tahlil va sintez tadqiqotning umum mantiqiy usuli sifatida
62. Induksiya tadqiqotning umum mantiqiy usuli sifatida
63. Yagona o'xshashlik usuli, yagona farq usuli
64. Deduksiya tadqiqotning umum mantiqiy usuli sifatida
65. Induktiv-deduktiv tadqiqot usullari: o'xshashlik va farqlarning qo'shma metodi, qoldiqlar usuli
66. Nazariy tadqiqot usullari: ajralmaslik, idealizm, rasmiylashtirish
67. Empirik tadqiqot usullari: kuzatish, eksperiment
68. Matematik tadqiqot usullari

69. Tadqiqot etikasi
 70. Tadqiqotning falsafiy va umumilmiy metodlari
 71. Xususiy va maxsus tadqiqot usullari
 72. Tadqiqot ishini rejalashtirish
 73. Tadqiqotda ilmiy axborotlar to'plash
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash va o'rnatilgan tartibda taqdim etish tavsiya etiladi.

VII. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Qobulov X.A. Imiy tadqiqot metodologiyasi. Elektron darslik. – T.: TMI, 2022. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).

Qo'shimcha adabiyotlar

2. Shanti Bhushan Mishra, Shashi Alok. Handbook of Research Methodology (A Compendium for Scholars and Researches). – New Delhi: Educreation Publishing, 2019. – 147 p. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
3. Thomas C.G. Research Methodology and Scientific Writing. – 2nd Edition. – New York: Springer, 2021. – 620 p. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
4. Walliman Nicholas. Research Methods: The Basics. – 3rd Edition. – New York: Routledge, 2022. – 286 p. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
5. Johnson R.B., Christensen L.B. Educational Research: Quantitative, Qualitative, and Mixed Approaches. – 6th ed. – London: SAGE Publications, 2017. – 744 p. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
6. Saunders Mark N.K., Lewis Philip, Thornhill Adrian. Research Methods for Business Students. – 7th edition. – Harlow: Pearson Education Limited, 2016. – 768 p. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
7. Christensen L.B., Johnson R.B., Turner L.A. Research Methods, Design, and Analysis. 12th Ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2015. – 543 p. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
4. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.
5. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti.

VIII. Talabalar bilimini baholash

Ushbu fan (modul) bo'yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o'quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 20 ball, oraliq nazorat uchun 30 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi. Yakuniy nazorat yozma shaklda amalga oshiriladi. Joriy, oraliq va nazorat vazifalari quyidagicha taqsimlanadi:

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI			
Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
joriy nazorat, shundan	20	O'quv jarayonining jadvali bo'yicha	
- Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi	10	fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazu yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarishi	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda
Mustaqil ta'lim, shundan	10	talabalar mustaqil ishlarini ikki yo'nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi	
1-mustaqil ish	5	mustaqil ta'lim mavzularidan biri bo'yicha Esse yoki tezis yozish (1000-1200 so'zdan kam bo'lmasligi lozim)	O'quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg'ulotlarining oxirgi haftasigacha
2-mustaqil ish	5	mustaqil ta'lim mavzularidan biri bo'yicha loyiha ishini tayyorlash va himoya qilish	O'quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg'ulotlarining oxirgi haftasigacha
Oraliq nazorat	30	Oraliq nazorat HEMIS axborot tizimi orqali yozma ish shaklda o'tkaziladi.	O'quv jarayoni grafigiga muvofiq oraliq nazorat haftasida HEMIS axborot tizimi orqali yoki bevosita o'quv auditoriyasida tashkil etiladi

Yakuniy nazorat	50	Yakuniy nazorat semestr yakunida yozma ish shaklda o'tkaziladi.	O'quv jarayoni grafigiga yakuniy haftalarida muvofig nazorat
Jami	100		

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Y_{aB} = JN + ON + YaN$$

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.
bunda, $(JN + ON) \geq 30$ ball; $YaN \geq 30$ ball bo'lishi talab etiladi.

Eslatma: Joriy nazorat va oraliq nazorat uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizi (30 ball)ni to'play olmagan talabaga yakuniy nazoratga kirishga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, yakuniy nazoratda ishtirok etib, yakuniy nazorat uchun ajratilgan jami ball (50 ball) ning kamida 60 foizi (30 ball)ni to'play olmagan (ya'ni, qoniqarsiz baho olgan) talaba mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi va akademik qarzdor hisoblanadi.

IX. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'trasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'ishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo'lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig'i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo'lmasa ish qabul qilinmaydi.

X. Mazkur o'quv dasturi (sillabus) kunduzgi ta'lim shakli uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakli uchun sillabuslar ishlab chiqiladi.

